

DAVLAT MOLIIYASI TIZIMI

Tojiboyev Bobur Adham o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.

[https://doi.org/ 10.5281/zenodo.14720599](https://doi.org/10.5281/zenodo.14720599)

Annotatsiya. Ushbu tezida O'zbekiston Respublikasida markazlashgan va markazlashmagan moliya tizimi, uning funksialari hamda vazifalari xususida bayon qilingan. Ishonchli manbaalarda tayangan holda shuni aytish mumkinki hozirda O'zbekiston moliya tizimining aksariyat bo'g'inlarida ijobiy islohatlar olib borilayapdi. Quyida O'zbekiston hamda rivojlangan davlatlarning amaldagi moliya tizimlarini taqqoslash natijasida jahon tajribasi o'rganildi va O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi uchun kelajak uchun istiqbollar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi, budget daromadi va xarajati, budget balansi, fiskal siyosat, davlatning ichki va tashqi qarzi, klassik va neoklassik yondashuv, YaIM, DXSH, xorijiy investitsiya, yashirin iqtisodiyot, xalqaro integratsiya.

STATE FINANCE SYSTEM

Abstract. This thesis describes the centralized and decentralized financial system of the Republic of Uzbekistan, its functions and tasks. Based on reliable sources, it can be said that currently positive reforms are being carried out in most parts of the financial system of Uzbekistan. Below, as a result of comparing the current financial systems of Uzbekistan and developed countries, world experience was studied and future prospects for the financial system of the Republic of Uzbekistan were developed.

Keywords: Financial system of the Republic of Uzbekistan, budget revenue and expenditure, budget balance, fiscal policy, internal and external debt of the state, classical and neoclassical approach, GDP, PPP, foreign investment, hidden economy, international integration.

СИСТЕМА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ

Аннотация. В данной диссертации рассматривается централизованная и децентрализованная финансовая система в Республике Узбекистан, ее функции и задачи. На основании достоверных источников можно сказать, что в настоящее время в большинстве звеньев финансовой системы Узбекистана проводятся позитивные реформы. Ниже в результате сравнения действующих финансовых систем Узбекистана и развитых стран изучен мировой опыт и разработаны дальнейшие перспективы развития финансовой системы Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Финансовая система Республики Узбекистан, доходы и расходы бюджета, сальдо бюджета, фискальная политика, внутренний и внешний долг

государства, классический и неоклассический подход, ВВП, ППС, иностранные инвестиции, скрытая экономика, международная интеграция.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 2022-yil 11-martdagi "Xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni, 2020-2030 yillar uchun 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi"ni tasdiqlash to'g'risida qarori, 2021-yil 28-avgustdagi "Hududlarni kompleks rivojlantirish va mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash" qarori hamda 2022-yil 1-apreldagi "Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi"ni tasdiqlash to'g'risidagi qaror va farmonlari bilan milliy iqtisodiyotimizning ko'plab qismlarida sezilarli islohatlar olib borilmoqda. Albatta ushbu islohatlar moliya tizimiga to'gridan-to'g'ri ta'siri bor hisoblanadi va bu tizimda keskin rivojlanishlarga sabab bo'ladi.


Har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning moliya tizimi indikatorlati ya'ni asosiy tarkibiy qismlari bir hil bo'ladi. Bular: **Budjet balansi, Fiskal siyosati, Davlat qarzlar va Xalqaro integratsiya** hisoblanadi.

Moliya tizimi tushunchasiga ikki xil yondashuv asosida ta'rif berish mumkin. Bu ikki yondashuv **Klassik yondashuv** va **Neoklassik yondashuv**lardir

• Moliya tizimi (klassik yondashuv) – bu turli xil pul mablag'lari fondini(uy xo'jaliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlar) tashkil qilish va undan foydalanish va taqsimlash jarayonidagi turli xil **pul munosabatlari majmuasidir**.

• Moliya tizimi (klassik yondashuv) – bu turli xil pul mablag'lari fondini(uy xo'jaliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlar) tashkil qilish va undan foydalanish va taqsimlash jarayonida ishtirok etuvchi **moliya institutlari va bazorlar majmuasidir**.

Moliya tizimi va Davlat moliya tizimi orasidagi farqqa nazar tashlaydigan bo'lsak, moliya tizimi ikki moliyadan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin. bular markazlashgan va markazlashmagan moliya. Davlat moliyasiga faqat markazlashgan moliya kiradi va moliya tizimining bir qizmi hisoblanadi.



Izoh: Markazlashgan va markazlashmagan moliya tarkibiy qismlari

1-rasm

	Ijro		Kutilma	Prognoz		
	2022	2023	2024	2025	2026	2027
YIM, trln so'm	996	1 192	1 412	1 630	1 866	2 125
YIM o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	6	6,3	6	6	6,1	6,3
Aholi jon boshiga YIM hajmi, AQSH doll.	2 527	2 789	3 011	3 251	3 526	3 826
Inflatsiya, o'tgan yil yakuniga nisbatan, foizda	12,3	8,8	9	7	5-6	5
Konsolidatsiyalashgan budjet ko'rsatkichlari, shu jumladan:	x	x	x	x	x	x
daromadlar, trln so'm	286,5	321,9	377,7	431,1	496,5	565,0
xarajatlari, trln so'm	321,7	381,0	434,8	480,3	551,9	629,1
taqchilik, trln so'm	-35,2	-59,2	-57,2	-49,3	-55,5	-64,1
taqchilik, YIMga nisbatan foizda	-3,5	-5	-4	-3	-3	-3


Izoh: O'zbekiston Respublikasi budjet balansi dinamikasi va projmozi.

Yuqoridagi jadvaldan (3-rasm) shuni ko'rishimiz mumkinki budjet daromadlari yildan yilga proressiv oshib bormoqda va bu birga budjet xarajatlariham bir maromda oshayapdi shuning uchun budjet balansi so'ngi barcha yillarda salbiy bo'lgan va bu keying uch yuldaham huddi shunday salbiyligi ushlanib qoladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki hattoki aksariyat rivojlanagan davlatlar ham budjet taqchilligini boshdan kechiradi.

Davlat moliyasi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqligiga keladigan bo'lsak, iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari **YaIM, Iqtisodiy raqobatbardoshlik va Investitsiyalar hajmi** ekanligini hisobga olgan holda samaradorlikni oshirishning asosiy yo'llari **bu fiskal siyosatni takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriyn qilish orqali mablag'larni boshqarish, Iqtisodiy rag'batlantirish, davlat-xusuiy sherikchilikni(DXSH) rivojlantirish** hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlardan yana biri bu **xorijiy investitsiya oqimi** hisoblanadi va bu ko'rsatkich O'zbekistonda so'ngi yillarda sezilarli oshgan. (4-rasm)


2-rasm



Izoh: O'zbekistonga xorijiy investitsiya oqimi dinamikasi. Bu ko'rsatkich ham so'ngi yillarda sezilarli oshganini ko'rishimiz mumkin. Albatta bu iqtisodiyot uchun ijobiy tasir ko'rsatadi.


Tashqi qarz ham davlat iqtisodiyotida va moliya tizimiga ta'siri bor ammo bu doimham salbiy bo'lavermaydi, ayrim tajribalada bu qaror ijobiy ro'l o'ynaganini ham ko'rishimiz mumkin. Iqtisodchi Behzod Hoshimov "Tashqi qarz miqdori ahamiyat kasb etmaydi, uni qaysi sohaga yo'naltirish eng asosiy qismidir" degan. Ya'ni u aytmoqchiki har qanday miqdordagi qarz hech qanday xavf uyg'otmaydi agarda u to'g'ri yunaltililsa. Ayrim tashqi qarzlar shunday yo'naltiriladiki, uning natijasi qarzdan bir necha marta ko'p bo'lib qaytadi. Bunday qarzlar asosan tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni va qayta ishlashni isloh qilish kabi sohalarga yo'naltiriladi.

3-rasm




Izoh: O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzi miqdori dinamikasi 2014-2023-yillar uchun, YaIMga nisbatan. Ko'rinib turganidek bu ko'rsatkich ham davomli oshgan va qarzning asosiy qismi budjet taqchilligini qoplash va investitsion loyihalarni kafolatlash uchundir. 2024 yil uchun tashqi qarz limiti 5 mlrd dollardan 7,3 mlrd dollarga oshirilgan. Ushbu mablag'ning 3,2 mlrd dollari davlat budjetini qo'llab-quvvatlashga, 4,1 mlrd dollari esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ishlatilgan.

O'zbekistondagi amaldagi moliya tizimi va xalqaro darajadagi tizimning asosiy farqlariga keladigan bo'lsak, bular **qonunchilik va tartibga solish, xalqaro integratsiya va infrastrukturaviy rivojlanish** hisoblanadi. Hamda O'zbekiston moliya tizimini rivojlantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohatlar **Moliyaviy tartibga solishning yaxshilanishi, Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, Raqamli moliya va fintechni rivojlantirish va Ta'lim va malaka oshirish** hisoblanadi. Berilgan islohatlardan eng muqobili xalqaro hamkorlikni kengaytirish hisoblanadi. Negaki, agarda aynan bir davlat xalqaro hamkorlikga erishish uchun yoki xalqaro moliyaviy institutlarda integrallashishi uchun u avvalambor ular talab qilgan qonun va talablarini qabul qilishi va o'z amaliyotida tadbiq qilishi kerak. Hammaga ma'lumki har qanday davlat divoqlangan davlatlar bilan hamkorli qilishi kerak va buning natijasida rivoqlangan davlatlar o'z amaliyotida sinalgan muvofaqqiyatli tajribalarni tadbiq qilishini soraydi va xalqaro moliyaviy institutlar misol uchun Jahon Savdo Tashkilotiham to'g'ri deb isbotlangan qonun va tizimlardan foydalanadigan davlatlarni a'zolicuga ruxsat beradi va bu jarayonlar albatta har qanday davlatning moliya tizimida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bunday hamkorliklarning yana bir yaxshi tomonlaridan biri bu mustahkam hamkorlikga ega davlat o'rtasida ko'plab manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'ladi. Misol uchun Imtiyozli va past stavkali kreditlar, tovarlarning erkin harakati v.h.k.



Izoh: Ushbu ko'rsatkich orqali Singapurning YaIM ning dinamikasini ko'rishimiz mumkin. Singapur 1995-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lgan. Va jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki 1995-yilgacha uning YaIM juda past deyarli o'zgarishsiz bo'lgan va aynan shu sanadan keyingindavrd bu ko'rsatkichda keskin ko'tarilish bo'lgan. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki Jahon savdo tashkilotiga a'zolik Singapur rivojida katta ro'l o'ynagan.

Quyida O'zbekistonda moliya tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqbollarini ko'rishimiz mumkin:



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki har bir rivojlangan davlatlar amaliyotida davlat moliya tizimi iqtisodiy o'sish davrining ajralmas qismi hisoblanadi va muhim rol o'ynaydi. Garchi O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida bir qator muammolar va amalga tadbqiq qilinishi zarur bo'lgan islohatlar bo'lishiga qaramay, yuqorida berilgan ko'rsatkichlar va tahlillar so'ngi yillarda ushbu rivojlanish barqarorlashishini ko'rsatmoqda. O'zbekiston 2030 strategiyasida takidlangan bir nechta istiqbollar natijasida kelajakda ushbu tizimda sezilarli rivojlanishlar kutilmoqda.

REFERENCES

1. <https://www.imv.uz/>
2. <https://www.worldbank.org/>
3. <https://lex.uz/>
4. <https://www.gazeta.uz/>
5. <https://stat.uz/uz/>